



TERGOV SUDYALARI KIM, ULARNING JINOYAT PROTSESSIDAGI O'RNI VA VAZIFALARI.



Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 1-kurs talabasi Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : sevinchbonusv@gamil.com

Bilamizki, **Konstitutsiyamizning 13-moddasida** qayd etilganidek, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari bu – eng oliy qadriyat hisoblanadi²⁵. Shu sababli yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish uchun ayniqsa bu borada sud huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatida shaxslarning manfaatlarini kafolatlash bo'yicha keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda.

Oxirgi natijalar esa O'zbekistonda sud-tergov faoliyatida shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimida bir qadar bo'shliqlar borligini, bu tizimni yanada rivojlantirish, mamlakatimizda jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari va daxlsizligini ta'minlash bilan birgalikda uning sud-tergov faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishida katta rol o'ynaydi deb o'ylayman. Chunki Konstitutsiyamizning 27-moddasida **"hech kim qonunda asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tartibda cheklanishi mumkin emasligi"** qat'iy belgilab qo'yilgan²⁶.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi prezidenti **2024-yil 10-iyunda "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"**²⁷ gi farmoni qabul qilindi. Bu farmon, albatta, **"O'zbekiston -2030 strategiyasining"**²⁸ aynan mana shu sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish prinsipi ustuvorligidan kelib chiqib qabul qilindi.

Natijada, **2025-yil 1-yanvardan** boshlab jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish bo'yicha masalalar jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarda tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi belgilandi.

Qayd etilishicha, tergov sudyasi lavozimi joriy etiladigan jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlariga tegishli shtatlar ajratilib, Hozirgi kunda 236²⁹ nafar tergov sudyalari tayinlangan.


²⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#:~:text=13%2Dmodda.,oliy%20qadriyat%20hisoblanadi.>

²⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#:~:text=Hech%20kim%20qonunga%20asoslanmagan%20holda%20hibsga%20olinishi%2C%20ushlab%20turilishi%2C%20qamoqqa%20olinishi%2C%20qamoqda%20saqlanishi%20yoki%20uning%20ozodligi%20boshqacha%20tarzda%20cheklanishi%20mumkin%20emas.>

²⁷ <https://lex.uz//ru/docs/-6964387>

²⁸ <https://lex.uz/docs/-6600413>

²⁹ [https://uza.uz/oz/posts/2025-yil-1-yanvardan-tergov-sudyalari-faoliyat-boshlaydi-667790#:~:text=Tergov%20sudyasi%20lavozimi%20joriy%20etiladigan%20jinoyat%20ishlari%20bo%20E2%](https://uza.uz/oz/posts/2025-yil-1-yanvardan-tergov-sudyalari-faoliyat-boshlaydi-667790#:~:text=Tergov%20sudyasi%20lavozimi%20joriy%20etiladigan%20jinoyat%20ishlari%20bo%20E2%20)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Natijada jinoyat protsessual kodeksiga ham katta o'zgartirishlar kiritildi, xususan kodeks yangi modda ya'ni 31-1-modda bilan to'ldirilib, tergov sudyasining vakolatlari aniq belgilab qo'yildi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 54-moddasida ham tergov sudyasiga quyidagicha ta'rif beriladi. Tergov sudyasi bu jinoiy sudlov ishlarini shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha kodeksda belgilangan tartibda sud nazoratini amalga oshirish bo'yicha birinchi instansiya sudining sudyasidir³⁰.

Kodeksga ko'ra **tergov sudyasi yakka tartibda ish yuritib, belgilangan tartibda sudga qadar ish yurituv bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vakolatini amalga oshiradi**³¹ va uning quyidagicha vakolatlari mavjud, masalan:

Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish;

Qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

Ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

Lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani;

Tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish va boshqa bir qato vakolatlarga ega³².

2025-yil 29-yanvargacha amalda bo'lgan qonunchilikda esa yetarli darajada asoslarga ega bo'lgan surishtiruvchi yoki tergovchi telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so'zlashuvlarni eshitishi hamda axborot olishi mumkin endi.

Ya'ni bu jarayon hozir qanday o'zgardi, jinoya ishi bo'yicha so'zlashuvlarni eshitish bo'yicha surishtiruvchi toki tergovchi iltimosnomani prokuroga yuboradi, prokuror esa rozi bo'lsa, keyin zarur materiallar bilan birga ishni sudga yuboradi, uni tergov sudyasi 8 soatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqib buni yoki qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik bo'yicha ajrim chiqaradi³³.

Bundan tashqari **PF -89 da** tergov sudyasining quyidagi yo'nalishlari ham keltirilgan:

Qonunchilikdan belgilangan tartibda tergov sudyasiga yuklatilgan vazifalarini adolatli va xolisona bajarish;

[80%98yicha%20tuman%2C%20shahar%20sudlariga%20tegishli%20shtatlar%20ajratilib%2C%202024%20yilning%2018%20oktyabr%20kuni%20Iqtisodiyot%20va%20moliya%20vazirligida%20ro%20o%20E2%80%98yxatdan%20o%20E2%80%98tkazildi.%20Hozirgi%20kunda%20236%20nafar%20tergov%20sudyalari%20tayinlandi.](#)


³⁰

³¹ <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=311%2Dmodda,nazoratini%20amalga%20oshiradi>.

³² <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=Tergov%20sudyasining%20vakolatlari%20jumlasiga,iltimosnomani%20ko%20CA%BBrib%20chiqish%20kiradi>.

³³ <https://lex.uz/docs/-111460>

³³ <https://lex.uz/docs/-111460>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Fuqarolarning va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoya qilish³⁴;

Tergov sudyasining vakolatlarining eng muhim jihatlaridn biri uning musaqil va yakka tartibda faoliyat yuritishi deb o'ylayman chunki, uning vakolatlari tergov va surishtiruv organlari harakatlari ustidan qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, prokuror nazoratidan farqli ravishda sud hokimiyati tomonidan bajarariladi. U jinoyat ishini mohiyatan hal etmaydi, tergov sudyasi dalillarning ayblovchi yoki oqlovchi ekanligini ham baholamaydi, u faqat amalga oshirilayotgan protsessual harakatlarning qonuniyligini, asosililigini va qonun bilan mutanosibligin tekshiradi va shu bilan uning vakolatlari protsessual xarakterga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.


Xalqaro tajribani ham bir qadar tahlil qilsak, masalan fransiya davlati olsak, fransiyada bu sudya 19-asrdan buyon faoliyat olib bormoqda, va u tergov bosqichida mustaqil dalillarni to'plash, guvohlarni so'roq qilish, tintuv o'tkazish, qamoqqa olish va boshqa shu kabi kocharalash qo'llash vakolatiga ega. Fransuz tergov sudyasining vakolatlari shunchalik keng qamrovli bo'lgani uchun Onore de Balzak uni "Fransiyaning eng qudratli odami" deya ta'rif bergan³⁵. U tergovni o'zi boshqaradi va tergov sudyasining prokurordan farqli jihati u ayblov hamda himoya manfaatlarini teng himoya qilishga harakat qiladi va neytral pozitsiyada turadi.

Aytib o'tganimdek Fransiyada tergov sudyasi dalillarni to'plash va tergovni butunlay boshqarish huquqiga ega bo'lsa O'zbekistonda tergov sudyasi faqat sanksiyalarni hamda majburiy choralarni qo'llash bilan cheklanganligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Tergov sudyasining boshqa jinoiy ishlar sudyalaridan asosiy farqi uning vakolatlarining cheklanganligi, ishni sudga qadar bosqichida ko'rishi, ishlarni asosan yakka va yopiq tartibda ko'rishi bilan farq qiladi deb o'ylayman. tergov sudyasi filtr vazifasini bajaradi ya'ni u tergov organlarining noqoqununiy harakatlarning oldini oladi va shaxslarning mustahkam belgilab qo'yilgan konstitustiyaviy huquq va erkinliklarining kafolatlanishini ta'minlaydi. Tergov sudyasi dalillarni to'plamaydi va ayblov tomoinida ham emas, ya'ni aytmoqchimanki, boshqa sudyalar dalillarni baholaydi, hukm chiqaradi, ishni mohiyatan hal qiladi, tergov sudyasi esa prokuror nazoratini to'ldiruvchi hisoblanib, lekin mustaqil hisoblanadi. tergov sudyasining qonunga kiritilishi va bir qator vakolatlar yuklatilishi, O'zbekistonda inkvizitor tizimdan aralash tiizmga o'tishni muhim bosqichi hisoblanmoqda, chunki u prokuror nazoratining yetrali emasligini to'ldirib, tergov bosqichidayoq sud nazoratining samarali amalga oshirilishiga va mexanizmni yana kuchaytirishga yordam bermoqda. Ushbu institute huquqiy davlat qurilishida muhim o'rin tutadi, chunki tergov bosqichlarida inson huquqlarining himoya qilinishi bo'yicha samarali mexanizmini ta'minlash Konstitutsiyamizda belgilangan inson huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

³⁴ <https://lex.uz//ru/docs/-6964387#:~:text=Quyidagilar%20tergov%20sudyasi,samarali%20himoya%20qilish.>

³⁵ [https://en.wikipedia.org/wiki/Investigating_judge_\(France\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Investigating_judge_(France))





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ushbu tahlil so'ngida o'zi tergov sudyalari bizga kerakmi degan savolga bir statistika bilan javob bermoqchiman.

Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasida jami 205 ta jinoyat ishlari bo'yicha sudlar mavjud, bo'lib ularning 78 tasi bir tarkiblidir, bu degani ushbu sudlar o'zlari tomonidan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki boshqa majburlov choralarini qo'llagan shaxslarga nisbatan ishni ko'rishga majbur³⁶. Bundan tashqari ish hajmi ham juda katta, bu albatta sifatga ham juda katta ta'sir ko'rsatadi, ushbu muammoni bartaraf etish va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida Prezidentimiz farmonida tezkor qidiruv va tergov harakatlariga alohida sudyalar ya'ni tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishini belgiladi.



³⁶<https://qarag'ipaqstan.sud.uz/uz/archives/8201#:~:text=Hozirgi%20kunda%20Respublika,ham%20ko%E2%80%988rishga%20majbur.>

